

YURISTLIKA BIR QADAM: TOSHKENT SHAHAR YURIDIK TEXNIKUMI

Anvarova Navro'za Toshboy qizi

*Toshkent shahar yuridik texnikumi, Yuridik xizmat yo'nalishi 02-01 guruh 1-bosqich
o'quvchisi. Elektron manzil: toshboymusayev@gmail.com*

Annotatsiya: *Bugungi rivojlanib borayotgan davlatimizda yuridik kadrlarga ehtiyoj juda yuqori. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 232-sonli "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida zamonaviy xalqaro standartlarga mos, yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash zarurligi ta'kidlangan.1 Ushbu maqolada yuridik kadrlarni tayyorlash tizimidagi muhim bosqich — o'rta-maxsus yuridik ta'limning roli va ahamiyati, xususan, Toshkent shahar Yuridik Texnikumi faoliyati haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Yuridik texnikum, yuridik kadr, mutaxassis, o'rta-maxsus ta'lim, sud protsessi, notarius, majburiy ijro*

KIRISH

Har jihatdan adolatli, demokratik tizim barpo etish asosiy maqsadimizdir. Adolatli, demokratik tizim barpo etishda yuridik soha va yuridik kadrlarning o'rni beqiyosdir. Respublikamizda huquqiy davlat qurish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish malakali, iste'dodli yuristlarni talab qiladi. Bu borada nafaqat oliy, balki o'rta-maxsus yuridik ta'lim muassasalarining hissasi ham juda katta. O'rta-maxsus yuridik kadrlarni tayyorlashda Toshkent shahar Yuridik Texnikumining ahamiyati alohida.

Tarixiy Sharh

Toshkent shahar Yuridik texnikumi (hozirgi Toshkent xududiy huquq koleji) 1970-yillarning o'rtalarida tashkil topgan. Yuridik texnikumining tashkil etilishi, tashkil topishi va rivojlanishi o'sha paytda O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri bo'lib ishlagan, yuridik fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist Mamlakat

Sobirovna Vosiqova va yuridik texnikumning birinchi direktori Umar Abdusalomovich Abdusalomovlarning nomlari bilan uzviy bog'liq. Texnikum dastlab Toshkent shahar sudining eski binosida faoliyat yuritgan. 1979-yilda Shota Rustaveli (hozirgi Usmon Nosir) ko'chasidagi binoga ko'chirildi. 1986-yilda esa texnikum direktori Halima Qodirovna Muhitdinovanning sa'y-harakatlari natijasida muassasa o'zining alohida o'quv binosi va yotoqxonasiga ega bo'ldi.

2 Dastlabki yillarda o'qituvchilar jamoasi asosan yosh mutaxassislardan shakllangan bo'lsa-da, talabalarga Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) yuridik fakulteti professor-o'qituvchilari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining atoqli olimlari, sud, ichki ishlar va prokuratura organlarining tajribali mutaxassislari dars bergan.

Toshkent yuridik texnikumini birinchi marta 1979-yilda 149 nafar talaba bitirdi. O'sha paytlardayoq ta'lim muassasasining nufuzi chegaradan tashqariga chiqqan bo'lib, talabalar orasida Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va Tojikistondan kelgan yoshlar ham bor edi 3

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 232-sonli "O'zbekiston Respublikasida yuridik

ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2 Vosiqova M.S. O'rta maxsus yuridik ta'lim tarixidan: Toshkent shahar Yuridik texnikumi.

45-bet.

3 Abdusalomov U A. O'quv jarayonini tashkil etishda amaliy tajribaning o'rni (Toshkent

shahar Yuridik texnikumi misolida) 32-bet

Hozirgi kunda Yuridik texnikum jadal rivojlanmoqda. Texnikumda malakali va professional o'qituvchi va professor-o'qituvchilar ta'lim jarayonini yuritmoqda. O'quv dargohida talabalar uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratilgan.

Texnikum talabalariga fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, konstitutsiyaviy sud, davlat va huquq nazariyasi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlat tilida ish yuritish va yuristlar uchun kerakli ko'nikma fanlaridan malakali o'qituvchilar chuqur bilimlarni berib kelishmoqda.

Xususan, davlat tilida ish yuritish fanidan talabalarga eng kerakli xujjatlarni rasmiylashtirish, maqolalar yozish o'rgatilsa, davlat va huquq nazariyasi fanidan davlat va jamiyatning vujudga kelishi, davlatning rivojlanishi, shakllari va davlat organlarining faoliyati o'rgatiladi. 1

Material-texnika bazasi:

- Talabalarining mustaqil ishlashi va dam olishi uchun qulay shart-sharoitlar.
- Kodekslar, darsliklar, qonun hujjatlari va badiiy adabiyotlar bilan boyitilgan kutubxona.

- Haqiqiy sud zali — bu texnikumning asosiy afzalliklaridan biri bo'lib, unda nafaqat o'quv-sud mashqlari, balki haqiqiy sud majlislari ham o'tkaziladi. 1 Bu talabalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan birlashtirish, sud protsessining deyarli haqiqiy muhitida o'z ko'nikmalarini sinash imkoniyatini beradi.

Ta'lim dasturi va imkoniyatlari:

- O'qish muddati — 2 yil.2
- 2-bosqichda o'qishini davom ettirayotgan talabalarda amaliyot o'tash imkoniyati mavjud va ular amaliyotini majburiy ijroda, davlat xizmatlarida, notariusda va sud yordamchisi sifatida olib borishadi. Amaliyot o'tashidan maqsad esa talabalarining o'rgangan bilimlarini amalda qo'llay olishi va kelajakda davlat organlarida ishlay olishi uchun kerakdir. Bitiruvchilar yuridik bilim asoslarini egallab, sud yordamchisi,

- majburiy ijro xodimi, notarius yordamchisi kabi lavozimlarda ishlash yoki o'qishni oliy o'quv yurtlarida davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Texnikumni a'lo baholarga tugatgan bitiruvchilar uchun imtiyoz mavjud: ular suhbat asosida Toshkent
- davlat yuridik universitetiga qabul qilinadilar.

Manzil: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Chilonzor dahasi, 12-mavze.

Xulosa

Toshkent shahar Yuridik Texnikumi yarim asrga yaqin tarixi davomida minglab malakali o'rta-maxsus yuridik kadrlarni tayyorlab, respublikamizning huquq-tartibot tizimiga qimmatli hissa qo'shmoqda.³ Prezident farmonida belgilangan maqsadlar — yuridik ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va amaliyotga yo'naltirilgan mutaxassislar tayyorlash — aynan shunday o'quv yurtlarining rivojlanishi bilan amalga oshiriladi. Yuristik faoliyatini boshlash, huquqshunoslikka birinchi qadam qo'yish istagida bo'lgan yoshlar uchun Toshkent shahar Yuridik Texnikumi ajoyib boshlang'ich platformadir. Bu yerda nafaqat mustahkam nazariy bilimlar, balki noyob amaliy ko'nikmalar ham egallanadi. Shu sababli, yuridik sohani tanlagan, tezda amaliy kasb egallashni istagan yoshlarga Toshkent shahar Yuridik Texnikumida o'qishni tavsiya etish mumkin. Chunki bu muassasa bilan yuristik faqatgina bir qadam narida

1 Toshkent shahar Yuridik texnikumi. Rasmiy veb-sayt. URL: <https://toshkent-yt.uz>.

2 Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlik shartnomasi va imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

3 Mirzaahmedov A.T. O'zbekistonda yuridik kadrlar tayyorlash tizimi 18-19 bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 232- sonli «O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora- tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.— Toshkent, 2017 yil 20 noyabr.

2. Vosiqova M.S. O'rta maxsus yuridik ta'lim tarixidan: Toshkent shahar Yuridik texnikumi. // O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar. — Toshkent, 2015. — №3. — B.45-51.

3. Abdusalomov U. A. O'quv jarayonini tashkil etishda amaliy tajribaning o'rni (Toshkent shahar Yuridik texnikumi misolida). // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. — Toshkent, 2018. — №6. — B. 32-38.

4. Toshkent shahar Yuridik texnikumi. Rasmiy veb-sayt. — URL: https://toshkent-yt_uz

(qaralgan sanasi: 05.01.2024).

5. Mirzaamedov A.T. O'zbekistonda yuridik kadrlar tayyorlash tizimi: istiqbollari. // Huquq va jamiyat. — Toshkent, 2020. — №1. — B. 18-25.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. — Toshkent, 2020 yil 23 sentyabr.

7. Muhitdinova H. Q. O'rta maxsus ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'llari. // O'qituvchi .— Toshkent, 2005. — №4. — B. 12-15.

8. Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlik shartnomasi va imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlar . // Toshkent shahar Yuridik texnikumi ma'lumotnomasi. — Toshkent, 2022.